

JAMIYAT RIVOJIDA DINLARARO BAG'RIKENGLIKNING AHAMIYATI

Po'latova Dildora Aziz qizi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Islomshunoslik" yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish

*ICESCO" kafedrasi dotsenti **Muhabbat Agzamova***

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotida dinlararo bag'rikenglikning roli, uning ijtimoiy barqarorlikka ta'siri, diniy bag'rikenglik nafaqat turli e'tiqod vakillari o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, balki inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda ham muhim omil ekani ko'rsatib beriladi. O'zbekiston va dunyodagi tajribalar asosida diniy bag'rikenglik siyosatining ahamiyati ochib berilib, uning jamiyat taraqqiyotiga qo'shadigan hissasi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: diniy bag'rikenglik, e'tiqod erkinligi, diniy ta'limotlar, islom, tolerantlik, tinchlik, madaniy xilma-xillik, hamjihatlik, adolat, mehr-oqibat.

Dunyoda 1600 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Xaritada esa o'z nomi bilan ataladigan 200 taga yaqin davlat bor. Bu ikki son o'rtasidagi nomutanosiblikka ko'ra, mavjud davlatlarga ko'p millatlilik xos ekani kelib chiqadi. Mazkur millat vakillari turli e'tiqod, xususan, diniy e'tiqodga amal qiladilar. Bu 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladigan O'zbekistonga ham taaluqlidir. Aholining 90 foizidan ortig'i islom diniga e'tiqod qilishi barobarida yana 15 turdagi boshqa konfessiya vakillari ham bahamjihat hayot kechirishmoqda¹.

"Bag'rikenglik" tushunchasining ta'riflari soni doimiy ravishda yangilanadi. Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasining 1-moddasida bag'rikenglikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Bag'rikenglik – bu yon berish, kamsitish yoki indulgensiya emas. Tolerantlik, eng avvalo, insonning umuminsoniy huquqlari va boshqalarning asosiy erkinliklarini tan olishdan kelib chiqadigan faol munosabatdir. Bag'rikenglik alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar tomonidan amalga oshirilishi kerak. Bag'rikenglik – bu bizning dunyodagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, muloqot va hurfiyr, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi. Bag'rikenglik bu turli-tumanlikdagi birlikdir..."².

¹ O'zbekistonda diniy bag'rikenglik: (Monografiya) / Z.Husniddinov; Mas'ul muharrir A.S.Ochilidiev. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2006. – B.7.

² <https://iaau.uz/oz/news/2354>. 29.01.2025

Diniy bag‘rikenglik g‘oyasi muayyan jamiyatda, butun dunyoda turli din va mazhabga e‘tiqod qiladigan xalqlar, odamlar o‘rtasida do‘stona aloqalarni o‘rnatish, ularning kuchi va iste‘dodini bunyodkorlik ishlariga safarbar etishga xizmat qiladi. Dinlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, vijdon erkinligi kabi tushunchalar o‘zaro uzviy bog‘liqdir³. Prezident Shavkat Mirziyoyevning: “Bag‘rikenglik bizning dunyoyimizdagi turli boy madaniyatlarni, o‘zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to‘g‘ri tushunishni anglatadi⁴” degan fikri bag‘rikenglikning asl mohiyatini yoritib beradi. Ushbu ta‘rif bag‘rikenglikni nafaqat diniy erkinlik, balki madaniy xilma-xillik, inson huquqlari va jamiyatdagi har bir shaxsning o‘ziga xosligini hurmat qilish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ga muvofiq har bir inson fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o‘z dini yoki e‘tiqodini o‘zgartirish erkinligini, o‘z dini yoki e‘tiqodiga o‘zicha shuningdek, boshqalar bilan birgalikda amal qilish kafolatini, ibodat qilishda va diniy marosimlarda yakka tartibda yoki odamlar orasida birga qatnashish erkinligini o‘z ichiga oladi. Xususan, ushbu normativ hujjatda: “Har bir inson biror bir kamsitishlarsiz, irqi, tili, jinsi, dini, siyosiy qarashlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishidan, moddiy ahvoli, qaysi tabaqaga mansubligi va boshqa holatlardan qat’iy nazar mazkur Deklaratsiyada e‘lon qilingan barcha huquqlar va erkinliklar sohibi bo‘lishi kerak”, – deyilgan.

O‘zbekistonning geografik nuqtai nazardan muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgani, ko‘plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani, xalqning diniy va madaniy hayotiga katta ta‘sir ko‘rsatgan va o‘ziga xos turmush tarzini shakllantirishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Millati va diniy qarashlaridan qat’i nazar, insonni ardoqlash va o‘zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat va boshqalarni izzat qilish kabi tuyg‘ular xalqning yuksak sifatlariga aylangan. Aynan shu omillar xalqning nafaqat ma‘naviy-ma‘rifiy, balki diniy bag‘rikeng (tolerant)ligining ma‘naviy asosini tashkil qiladi.

Islom dini inson qadri, taraqqiyoti va tinchlikni ta‘minlashga qaratilgan ezgu g‘oyalar bilan yo‘g‘rilgan. Bu haqiqatni “Islom – bu tinchlik” degan fikr ham tasdiqlaydi. Ayni paytda, arab tilidagi “silm”, “salom” va “islom” so‘zlarining lug‘aviy jihatdan tinchlik va omonlik ma‘nosini anglatishi bejiz emas⁵. Bu islom dinining asosiy mohiyati bevosita tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta‘minlashga qaratilganini ko‘rsatadi. Islom ta‘limotlarida, Qur‘on oyatlarida tinchlikni saqlash va uni

³ Российская социологическая энциклопедия. – М.: Наука 1998. – С.278.

⁴ <https://hidoya.uz/uz/news/719>. 30.01.2025

⁵ Jaholatga qarshi ma‘rifat: O‘quv qo‘llanma – T.: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2019. – B.6.

mustahkamlashga chaqiriladi. Baqara surasining 208-oyatida: “Ey, imon keltirganlar! Yoppasiga itoatga kiringiz!”⁶ mazmunidagi chaqiriq tinchlikni asrashning umumiy burch ekanligini ta’kidlaydi. Tafsir kitoblarida ushbu oyatning talqini barcha insonlarning jipslashgan holda tinchlik yo’lini tanlashlari, bu yo’lda har bir kishi o’z hissasini qo’shishi zarurligini bildiradi. Bu oyat faqat musulmonlarga emas, balki butun insoniyatga yo’naltirilgan bo’lib, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash uchun harakat qilish zarurligini uqtiradi. Islom dini o’z mohiyatiga ko’ra, bag’rikenglik, totuvlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanadi. Tarixiy jihatdan ham islom tamadduni diniy va madaniy xilma-xillikni hurmat qilishga katta e’tibor qaratgan. Qur’on oyatlari va Payg’ambar Muhammad (s.a.v.)ning hadislarini insonlar o’rtasidagi totuvlik, millatlararo hamkorlik va hurmatni targ’ib qiladi. Bugungi globalizatsiya sharoitida islomning tinchlik va bag’rikenglik haqidagi ta’limotlari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Tinchlik va hamjihatlikni ta’minlash orqali barqarorlikni mustahkamlash, turli e’tiqod vakillari o’rtasida o’zaro hurmat va tushunish muhitini yaratish mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir insonning diniy erkinlik huquqi kafolatlangani aniq belgilab qo’yilgan. Hech kim diniy e’tiqodga majburlanmasligi, istagan diniga e’tiqod qilishi yoki umuman hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga egaligi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biridir. Bu tamoyil Qur’onning Baqara surasi, 256-oyatiga ham uyg’un keladi: “Dinda zo’rlash yo’q”⁷. Mazkur oyatda e’tiqod masalasida majburiylikning yo’qligi ta’kidlanadi. Islom dini kishilarning vijdon erkinligini hurmat qilishga, har bir insonning e’tiqodi va qarashlariga nisbatan bag’rikenglik bilan yondashishga chaqiradi. So’nggi yillarda ayrim kimsalar o’zlarining buzuvchi g’oyalarini odamlar ongiga singdirishga urinishayotgani, hatto Prezident olib borayotgan oqilona siyosatga qarshi ig’vo va fitnalar uyushtirishayotgani diniy bag’rikenglik va milliy barqarorlikka tahdid solmoqda. Baqara surasining 191-oyatida: “Fitna qotillikdan ham ashaddiyoqdir”⁸ – deb marhamat qilingan. Bu oyatga ko’ra, jamiyatda fitna chiqarish, odamlarni yo’ldan ozdirish va beqarorlikka undash jismoniy zo’ravonlikdan ham og’irroq jinoyat ekani ta’kidlangan. Fitna nafaqat insonlarning tinchini buzadi, balki butun jamiyat barqarorligiga tahdid soladi.

Alloh Qur’onda musulmonlarni o’zlariga tajovuz qilib, urush ochmagan o’zga din vakillariga yaxshilik qilishga qiziqtirib “Mumtahana” surasining 8-oyatida “**Din**

⁶ Qur’oni Karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur; tahrir hay’ati: Usmonxon Alimov, Rahmatulloh qori Obidov, N.Ibrohimov va boshq.; Mas’ul muharrir: M.Ahmadjonov. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2009. – B.32.

⁷ Qur’oni Karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur; tahrir hay’ati: Usmonxon Alimov, Rahmatulloh qori Obidov, N.Ibrohimov va boshq.; Mas’ul muharrir: M.Ahmadjonov. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2009. – B.42.

⁸ Qur’oni Karim: ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur; tahrir hay’ati: Usmonxon Alimov, Rahmatulloh qori Obidov, N.Ibrohimov va boshq.; Mas’ul muharrir: M.Ahmadjonov. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2009. – B.30.

to‘g‘risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o‘z yurtiingizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishingiz va ularga adolatli bo‘lishingizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatli kishilarni sevadi⁹” – deb marhamat qiladi. Mazkur oyat islomning tinchlik, bag‘rikenglik va adolat g‘oyalariga asoslanganligini tasdiqlaydi. Islom dinida insonlar orasidagi munosabatlar faqat e‘tiqodga asoslanib qurilmaydi, balki adolat, hurmat va yaxshilik tamoyillari asosida olib boriladi. Ushbu oyat bugungi kunda ham millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bag‘rikenglik haqida gapirilar ekan 2018-yil 12-dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” nomli maxsus rezolyutsiya qabul qilinganini eslab o‘tish o‘rinlidir. Ushbu hujjat O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, BMTning barcha a‘zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo‘llab-quvvatlangan. Mazkur rezolyutsiya O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan tashabbus natijasida qabul qilingan. Bu esa O‘zbekistonning diniy bag‘rikenglik, vijdon erkinligi va ma‘rifatni rivojlantirish borasidagi xalqaro miqyosdagi yetakchi rolini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, hozirda yurtimiz aholisining katta qismini islom diniga e‘tiqod qiluvchi musulmonlar tashkil qilishiga qaramay, diniy konfessiyaga mansub tashkilotlar erkin, o‘zaro hamjihatlik, bag‘rikenglik ruhida faoliyat yuritayotgani va qonunga muvofiq, ularning har biri o‘z faoliyatida bir xil huquq va erkinliklarga ega ekani yuqorida aytilgan fikrlarning yaqqol namunasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik: (Monografiya) / Z.Husniddinov; Mas’ul muharrir A.S.Ochildiev. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006. – 164 b.
2. Российская социологическая энциклопедия. – М.: Наука, 1998. – 278 с.
3. Jaholatga qarshi ma‘rifat: O‘quv qo‘llanma – T.: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2019. – 212 b.
4. Qur’oni Karim: ma’nolariningtarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur; – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2009. – 624 b.
5. <https://hidoya.uz/uz/news/719>
6. <https://iiau.uz/oz/news/2354>

⁹ Qur’oni Karim: ma’nolariningtarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: A.Mansur; tahrir hay’ati: Usmonxon Alimov, Rahmatulloh qori Obidov, N.Ibrohimov va boshq.; Mas’ul muharrir: M.Ahmadjonov. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2009. – B.550.